

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2024-3/3**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2024**

## ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<b>Aminboyeva N.K.</b> Nofilolofik ta'lim yo'nalishlarda o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning didaktik asoslari	115
<b>Avezmetov J.Sh.</b> Improving lexical skills of english language students	117
<b>Avezmetov J.Sh.</b> The effect of using internet resources in teaching english vocabulary	119
<b>Daminov N.K., Nurillayeva S.N.</b> Darsni yetkazib berish va faollikni oshirishda zamonaviy metodlar va innovatsion onlayn platformalarning bugungi kundagi ahamiyati	122
<b>Djumayeva D.I.</b> Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda emotsional liderlik sifatlarini shakllantirishning ahamiyati	125
<b>Haydarov R.M.</b> Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari kasbiy kompetentligi barqarorlashtirish	128
<b>Hayitova N.R.</b> Ingliz tilidan murakkabligiga ko'ra darajalangan testlar va ularning asoslari	131
<b>Ibadullayeva M.</b> Improving independent learning skills of english language learners based on flipped classroom technology	134
<b>Kholmurodova O.A.</b> Developing critical thinking in foreign language students: approach and tools	138
<b>Mamajanova G'.X.</b> Chet tilidagi nutqni eshitishning rivojlanishi va uning turli bosqichlarining hozirgi kundagi ahamiyati	141
<b>Mamatqulova N.F.</b> Yuvaskula universitetining o'ziga xosligi va o'rganishga arziqli jihatlari	144
<b>Matkarimova N.M.</b> Oila mustahkamligining sog'lom avlodni tarbiyalashdagi o'rni	147
<b>Maxmudova N.R.</b> Chet tillarni o'qitishda maqol va matallardan foydalanishning samarali usullari	150
<b>Mirqodirova Z.Sh.</b> The role of motivation in language learning	152
<b>Muxamedova L.Dj.</b> Development of communicative competence in teaching foreign language for professional purposes	155
<b>Norkulova Sh.</b> Development of speaking skills using innovative methods in higher education institutions	158
<b>Oromova N.J.</b> Adabiy ta'limda nazariy ma'lumotlardan foydalanish pedagogik muammo sifatida	162
<b>Qambarov B.P.</b> Raqamli ta'lim resurslarining kasbiy ta'limdagi o'rni va roli	164
<b>Qudratov A.N.</b> Professional ta'lim yo'nalishi talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish muammosini yechish yo'llari	167
<b>Rahmatova Z.M.</b> Oliy ta'lim muassasasida chet tili ta'limining raqobatbardosh geymifikatsiyasi	169
<b>Saparova M.R.</b> Purpose and content of active methods of learning a foreign language	173
<b>Shakirova S.T.</b> Chet tilini tinglash va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yondashuv asoslari	175
<b>Shukurova N.N., Saibnazarova M.A., Berdiyev A.Q.</b> Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi (o'yin texnologiyalari)	178
<b>Tashkhodjaeva P.B.</b> Typology of foreign language lessons	181
<b>Tashxodjayeva P.B.</b> Tibbiy ta'limda xorijiy tillarning o'rganilishi	184
<b>Xayitov J.X.</b> Bo'lajak pedagoglarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	186
<b>Yaqubov G'.</b> Harbiy ta'lim rivojida harbiy kafedralarning tutgan o'rni va ahamiyati	189
<b>Yaqubov G'.</b> O'zbekistonda oliy harbiy ta'limning rivojlanishi	192
<b>Yusupova N.</b> Akademik litseylarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish zarurati	194
<b>Акимбекова Х.Т.</b> Творческое самовыражение студентов неязыковых вузов на уроках русского языка	197
<b>Алленова И.В.</b> Научно - теоретические основы методики преподавания русского языка	200
<b>Ахмедова Н.Н., Рахманкулова Н.Х.</b> Инновационные технологии в логопедии	203
<b>Валиева Х.</b> Роль текста в преподавании русского языка у студентов неязыковых ВУЗов	205
<b>Ташева У.Т.</b> Специфика преподавания русского языка как иностранного в системе высшего образования	208
<b>Темирова Ш.Г., Хаджикурбанова Г.А., Юлдашева С.Т.</b> Интернет-зависимость среди молодежи: причины и последствия	210

This includes lessons in the formation of skills, target application of what has been learned, etc.:

- *Lesson of independent work*
- *Lesson - laboratory work*
- *Practical work lesson*
- *Lesson – excursion*
- *Seminar*

3. Lesson of generalization and systematization:

This includes the main types of all five types of lessons.

4. Lessons on test accounting and assessment of knowledge, skills and abilities:

- *Oral form of verification (frontal, individual and group survey)*
- *written verification*
- *pass*
- *credit practical and laboratory work*
- *control (independent) work*
- *mixed lesson (combination of the first three types)*

5. Combined lessons:

*They solve several didactic problems [1].*

As the main components of a lesson, G.D.Kirillova recommends considering didactic means that ensure the achievement of the goal of the lesson: the content of educational material, methods of studying it and methods of organization. These components exist and are implemented in close unity, determining the content, methodological and organizational aspects of the interrelated activities of the teacher and students. The modern lesson is characterized by the interrelation of such elements as assimilation, synthesis, repetition and consolidation, control of previously learned in connection with the mastery of new educational material and its practical application.

Independent work of students is organized not only at the stage of repetition and consolidation, but already when studying new material; there is a close connection between teaching and learning, between the collective work of the class and the individual work of students. In the lesson, the role of students' independent activity and the application of acquired knowledge and skills increases. Elements of students' search activity are used not only in problem-based lessons, but also at individual stages of lessons of all types (combined tests, etc.). Depending on the progress of solving the set didactic tasks, individual stages of lesson construction can be expanded or shortened, the place and functions of various methods can change and teaching methods. The structure of a modern lesson is therefore very diverse, reflecting the specifics of the organization of students' cognitive activity and the leadership role of the teacher. One of the tasks of didactics is the further development of the theory of the structure of a modern lesson.

#### REFERENCES:

1. Makhmutov M.I. Modern lesson: Theory issues. M.: Pedagogy, 1981. - 192 p.
2. Onishchuk V.A. Lesson in a modern school. Manual for teachers. - M.: Education, 1981. - 191 p.

UO'K 378:304.2

### TIBBIY TA'LIMDA XORIJIY TILLARNING O'RGANILISHI

*P.B.Tashxodjayeva, katta o'qituvchi, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xorijiy tillarning tibbiyot sohasidagi o'rganilishining muhim ahamiyati yoritib berilgan. Tibbiyotda xorijiy tillarni o'rganish ushbu sohani rivojlanishi va tibbiyot sohasi rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishi uchun eng muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, tibbiyot, til ko'nikmalari, xalqaro tibbiyot tili, tibbiy sug'urta.

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается важность изучения иностранных языков в сфере медицины. Изучение иностранных языков в медицине играет важнейшую роль для развития этой области и вхождения в ряды развитых стран в области медицины.

**Ключевые слова:** иностранный язык, медицина, языковые навыки, международный медицинский язык, медицинское страхование.

**Abstract.** *This article highlights the importance of learning foreign languages in the field of medicine. The study of foreign languages in medicine plays the most important role for the development of this field and for joining the ranks of developed countries in the field of medicine.*

**Key words:** *foreign language, medicine, language skills, international medical language, medical insurance.*

Hozirgi kunda har bir sohada chet tillarini bilish muhim ahamiyatga ega. Qaysi davlat bo'lmasin, davlatning tibbiyot sohasi, uning qay darajada rivojlanganligi ko'rsatuvchi omilidir. Hozirda tibbiyotni rivojlantirish uchun Chet el investitsiyalari mamlakatimizda tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda ikki davlatni aloqasini taminlovchi vosita til hisoblanadi. Hozirgi vaqtga kelib ingliz tili barcha davlatni bog'lovchi til bo'lganligi sababli barcha davlatlarda shuningdek mamlakatimizda ham ta'lim tizimidan chet tili sifatida ingliz tili o'rgatilmoqda. Tibbiy xodimlari ish jarayonida turli tibbiy texnologiyalaridan foydalaniladi.

O'zbekistondagi tibbiy oliy ta'limda ingliz tilini mukammal o'zlashtirgan mutaxassislarini tayyorlash, bu boradagi metodologiyani takomillashtirish va mazkur yo'nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar majmuini belgilash kabi qator vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. Tibbiyot talabalari uchun o'z kasbiy sohasida til ko'nikmalarini egallash muhim masalalardandir. Mamlakatimizdagi tibbiy ta'limni modernizatsiya qilish jarayoni ixtisoslashgan fanlar foydasiga ko'plab gumanitar fanlarning keskin qisqaruvi, jumladan, xorijiy tillar fanidan o'quv soatlarining kamayishiga olib keldi. Mazkur jarayon tibbiyot talabalari uchun qisqa vaqt ichida ingliz tilini o'qitishda samarali usullarni joriy etish zaruriyatini belgilab berdi.

O'zbekistonda ham ingliz tili o'qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (listening - tinglab tushunish), (speaking gapirish), (reading o'qish) va (writing yozish) malakalari shakllantiriladi. Ingliz tili o'qitishda mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozirga vaqtga kelib tibbiy muassasalar talabalari bakalavriat bosqichini tugatib keyingi bosqich magistratura yo'nalishi uchun til sertifikatlarini joriy etishdi. Kelgusida o'quv yilidan boshlab chet tili (ingliz, nemis, fransuz tillari)ni bilish darajasi to'g'risidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari stipendiyasiga qo'shimcha ustama to'lanadi. Bu O'zbekiston prezidentining "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida aks etgan. Davlat dasturiga muvofiq ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, bu boradagi ta'lim sifatini tubdan oshirish maqsadida, sohaga malakali o'qituvchilarni jalb etish, aholining chet tillarni o'rganishga qiziqishini oshirish, aholi o'rtasida chet tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni to'liq o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ta'limning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha xalqaro miqyosda tan olingan dasturlar va darsliklarni joriy etishni muvofiqlashtirish, zamonaviy o'qitishni rivojlantirish. o'qituvchilar o'rtasidagi ko'nikmalar; chet tillarini o'qitish sohasida "bolalar bog'chasi-maktab-oliy ta'lim tashkiloti-korxonasi" tamoyili bo'yicha uzluksiz ta'lim zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlari uchun mos til o'rganish bo'yicha uslub va tavsiyalar ishlab chiqishni muvofiqlashtirish; Bundan ko'rinib turibdiki mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlardan kerakli foydalanishimiz zarur. Bu islohotlarning barchasi mamlakatimizning rivojlanishi uchun biz yosh avlodlarni salohiyatli shifokor bo'lishimizga qaratilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-yanvar kuni sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida aholi salomatligini ta'minlash, tibbiyot sifatini oshirish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilangan. Bu islohotlarni jadallashtirish va hayotga samarali tatbiq etish maqsadida xalqaro ekspertlar ishtirokida takliflar ishlab chiqildi.

Unga ko'ra, Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasida davlat muassasasi shaklida "Sog'liqni saqlash loyihalari markazi" loyiha ofisini tashkil qilish taklif etilmoqda. U davlat tibbiy sug'urtasi

tizimini hamda davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketini to'liq joriy etish, tibbiy xizmatlar sifati va xavfsizligi ustidan nazorat tizimini kuchaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, tibbiy ta'lim tizimi va ilm-fan sohasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish kabi yo'nalishlarga mas'ul etib belgilanadi. Shuningdek, bu markaz raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini jadallashtirish, xususiy sektorni kengaytirish, davlat xaridlari shaffofligini oshirish, farmatsevtika sohasini isloh qilishga ko'maklashadi.

Loyiha ofisi faoliyatiga ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining tajribali mutaxassislari, shuningdek, xorijiy ekspert va maslahatchilar shartnoma asosida jalb qilinadi.

Sog'liqni saqlash sohasida belgilangan islohotlar yetuk kadrlar salohiyatini talab etadi. Shu bois bu borada bir qancha chora-tadbirlar ko'zda tutilmoqda. Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasining ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Unda jamoat salomatligi, profilaktik tibbiyot, jismoniy faollik ixtisosliklari bo'yicha magistrlik yo'nalishlari ochiladi. Tibbiyot yo'nalishidagi talabalar bilimni xalqaro tan olingan tizim asosida, ikki bosqichda davlat imtihonlari orqali baholash yo'lga qo'yiladi.

Kelgusi o'quv yilidan boshlab, hududlardagi ehtiyojdan kelib chiqib, tibbiyot oliygohlarining 200 nafar bitiruvchisi magistratura va klinik ordinatura dasturlari asosida yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida o'qitiladi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan xirurgiya, kardiologiya, endokrinologiya, dermatovenerologiya va kosmetologiya markazlari, Bolalar milliy tibbiyot markazi hamda Milliy tibbiyot markazi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Joriy yilda amaldagi 40 ta sanitariya qoida va normalari qayta ko'rib chiqilib, xalqaro standartlarga muvofiq lashtiriladi.

Davlatimiz rahbari ham bu takliflarni ma'qullab, mazkur ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash bo'yicha topshiriq berdilar.

Xulosa qilib aytganda, bu islohotlarning barchasi tibbiyotni rivojlantirish, talabalarning turli xil tillarni o'zlashtirib, O'zbekistonda tibbiyot sohasini xalqaro miqyosga olib chiqishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasida chet tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 y. PK-5117-son Qarori.
2. <https://www.sof.uz/> tibbiyot sohasi yaxshi rivojlangan 10 davlat.
3. <https://www.schoolrate.ru/> O'zbekiston taraqqiyotida ingliz tilining o'rni.
4. II Xalqaro Ilmiy-Amaliy konferensiya tezislar va ma'ruzalar to'plamidan Tibbiyot talabalariga kasbiy kompetensiyani integrativ yondashuv orqali o'rgatish (ingliz tili misolida). Tashxodjayeva P.B. Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston (Toshkent, O'zbekiston) (84-bet).
5. Tashpulatova, D., & Siddiqova, I. (2021, April). A critique of the view of antonymy as a relation between word forms. In Конференции.
6. Ташпулатова, Д. Х. (2019). Понятие и виды педагогических концепций обучения иностранному языку. Анализ современных педагогических концепций. Вопросы педагогики, (7-2), 118-121.
7. Ташпулатова, Д. Х. К., & Умурзакова, Б. Э. (2023). Первая система. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 303-309.
8. Tashpulatova, D. K. K., & Jiyenbayeva, B. (2023). The impact of learning a language on the brain function. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 310-314.
9. Ташпулатова, Д. Pragmatic aphorisms in uzbek and english feature and the principles of their transmission in the corpus. Соотношение паралингвистики и речевого этикета в разных лингвокультурах.

UO'K 378

### BO'LAJAK PEDAGOGLARDA IXTIROCHILIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*J.X.Xayitov, PhD, Termiz davlat universiteti, Termiz*

*Annotatsiya. Ixtirochilar tarixiga nazar tashlar ekanmiz fan–texnika taraqqiyoti hozirgi darajaga erishguncha turli el–elatlarda behisob olimlar zahmat chekishganligi va butun hayotlarini ilmga baxshida etganliklarining guvohi bo'lamiz. Bo'lajak pedagoglarning ixtirochi bo'lishi uchun o'zi tomonidan kuzatilgan kamchiliklarni sababini aniqlash va bartaraf qilish bilan bog'liq, kishida chuqur bilim, fikr ustunligi, yuqori malaka va ko'plab boshqa sifatlarning bo'lishi zarurligidir*